

**ЛУЧШИЕ
ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**



международном научно-образовательном
электронном журнале



OPEN  ACCESS



**ЧАСТЬ-40
ТОМ-1
3/2025**



ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

международный научный электронный журнал

ЧАСТЬ-40 ТОМ-1

Март - 2025 год





BUXORO QOVUNCHILIGINING TARIXI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Saidov Mahmud Amonovich¹

m.a.saidov@buxdu.uz

Alimov Muhammad Mo‘min o‘g‘li²

m.m.alimov@buxdu.uz

Buxoro davlat universiteti^{1,2}

***Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi Buxoro qovunchiligi, uning rivojlanish tarixi, yetishtirilayotgan qovun navlari va ularning xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Qovunchilik, nav, ertapishar, o‘rtapishar, kechpishar, Oqnovot, Amiri, Ko‘ktinni;*

ИСТОРИЯ БАХЧЕВОДСТВА БУХАРЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛИ.

***Аннотация:** В данной диссертации будет рассмотрена Бухарская дыня, история ее развития, сорта дыни и их особенности.*

***Ключевые слова:** дыня, сорт, раннеспелый, среднеспелый, позднеспелый, Акновот, Амири, Куктинни;*

HISTORY OF MELON GROWING IN BUKHARA AND PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE INDUSTRY.

***Annotation:** This thesis talks about Bukhara melon, the history of its development, the varieties of melon being grown and their characteristics.*



Keywords: Melon, nav, ertapishar, rtapishar, kechpishar, Oknovvot, Amiri, Kuktinni;

O‘zbekistonda hozirgi davrda qovunning 160 dan ortiq madaniy navlari tarqalgan bo‘lib, ular pishib etilish muddati, hosildorligi, ta‘mi, mevalarining saqlanish muddati bo‘yicha o‘zaro farqlanadi va ularning ko‘pchilik qismi jahonda shuxrat qozongan. Buxoro viloyati esa O‘zbekistonning eng qadimiy qishloq xo‘jalik markazlaridan biri bo‘lib, uning tarixi bilan chuqur bog‘liq bo‘lgan sohalardan biri – qovunchilikdir. Buxoro qovuni nafaqat hududning iqtisodiy hayoti, balki uning madaniy va gastronomik merosining ajralmas qismidir.

Buxoroda qovun yetishtirishning tarixiy ildizlari eramizdan avvalgi IV-II asrlarga borib taqaladi. Buxoro qovunlari to‘g‘risidagi dastlabki qo‘lyozmalar aynan shu asrlarda grek sarkardasi Iskandar Zulqarnaynning Buxoro vohasiga bostirib kelishi bilan bog‘liq. XX asrning o‘rtalarida “Butunittifoq o‘simlikshunoslik ilmiy tadqiqot institute”ning mashhur seleksioner olim K.I. Pangalo O‘zbekistonda yetishtirilgan qovun va tarvuzning 4000 ga yaqin navlar kolleksiyasini yig‘gan va yaratgan.

Buxoro viloyatidagi tuproq va iqlim sharoitlari qovunlarni yetishtirish uchun juda qulay bo‘lgan, bu yerda issiq va quruq iqlimning mavjudligi, shuningdek, qumli va mo‘tadil tuproqlar qovunlarning o‘shiga imkon yaratgan. Qovunlar dastlab yovvoyi shaklda o‘sib, keyinchalik seleksiya va mashhur o‘zbek qovunchilari tomonidan yaxshilandi. Buxoro qovuni o‘zining katta hajmi, shirin ta‘mi va suvli tarkibi bilan tanilgan. Shuningdek, qovunlarning rang-barang turlari va shakllari ham Buxoro viloyatining an‘anaviy qovunchiligida muhim o‘rin tutadi.

Buxoro viloyatining qovunlari nafaqat mazasi, balki ularning yuqori sifatli tarkibi bilan ham ajralib turadi. Buxoro qovuni o‘zining o‘ziga xos ta‘mi, yuqori shirinligi, mo‘tadil suvli tarkibi va qattiq po‘stlog‘i bilan mashhur. Buxoro



qovunlarining ta'mi o'zgacha bo'lib, ularning shirinligi va suvli tuzilishi, shuningdek, uzoq muddat saqlanishi esa iste'molchilarni o'ziga tortadi.

Buxoro qovunchiligi faqat iqtisodiy ahamiyatga ega emas, balki madaniy qadriyatlarni ham o'zida mujassamlashtiradi. Buxoroda qovunlar ko'pincha xalq festivallari, bayramlar va maxsus tadbirlarda ajralmas o'rin tutadi. Qovunlar, shuningdek, o'zbek oshxonasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularni turli taomlar, salatlar va desertlar tayyorlashda ishlatishadi.

Voha respublikaning markaziy tekislik qismida joylashib, Qizilqum va Qarshi cho'llari bilan o'ralgan. Qovun sho'rlanmagan va turli darajada sho'rlangan: bo'z, o'tloqi-allyuvial, o'tloqi-cho'l hamda o'tloqi-taqir, sho'rxok tuproqlarda yetishtiriladi. Buxoro vohasi qovun navlarining tarkibi xilma-xil bo'lib, hududlar bo'ylab keskin farqlanadi. Viloyatda tarqalgan navlar tezpisharligi bo'yicha turli guruhlarini namoyon etadi:

ertapishar navlarga Oqnovvot, Oqzog'ora, Zarchopon F1, Yashil etli zog'ora, Oq etli zog'ora, Kogon zog'orasi, Ko'lyozi zog'orasi, Oq bo'rikalla, Ola yo'lyo'l bo'rikalla, Qo'tir bo'rikalla, Qora bo'rikalla, Ko'k bo'rikalla, Ko'lyozi bo'rikalla, Magaski bo'rikalla, Sariq bo'rikalla, Mahalliy oq etli bosvoldi, Doniyori, Ertagi qo'tir, Obinovvot, Mahalliy Samarqand obinovvoti, Mahalliy oq etli toshloqi, Toshloqi 862, Shofirkoni;

o'rtapishar navlarga Olacha, Mahalliy oqqovun, Amiri, Oq ameri, Yashil etli ameri, Mayda mevali ameri, Bargi, Bekzodi, Londa bekozdi, Vaharman, Mahalliy dahbedi, Oq etli zarmiton, Qizil etli zarmiton, Yirik mevali ichiqizil, Ko'ktinni 1087, Ko'kcha 588, Kulixushtarin, Oltin vodiy, Rohat, Mahalliy shakarpalak, Sherozi;

kechpishar navlarga Arkoniy, Oq etli gulobi, Jo'jaburun gulobi, Zarg'aldoq gulobi, Yashil gulobi, Zar gulobi, Ko'k Chorjo'y gulobisi, Londa ko'k gulobisi, Qora gulobi, Sariq gulobi, Gurlan, Qalaysan, Mahalliy qoraqand, Buxoro qoraqandi, Qorako'l, Qoraqand, Mahalliy qoraqosh, Qariqiz, Qandxom, Qo'ybosh



476, Oq etli qo‘ybosh, Londa qo‘ybosh, Kechki qo‘tir, Magaski, Maftobi, Temirtirnoq, To‘yona, Mahalliy oq etli umrboqiy, Xo‘ja buvaketdin, Xo‘jamurot, Hasani kabi qovun navlari kiradi.

Bugungi kunda Buxoro viloyatida qovun yetishtirishda zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilmoqda. Suv resurslarini samarali boshqarish, maxsus sug‘orish tizimlari va yangi selektsiya usullari qovun yetishtirishning rentabelligini oshirdi. Shuningdek, qovun turlarining selektsiyasida ilmiy ishlanmalar, biotexnologiyalar, resurs tejankot sug‘orish tizimi va ekotizimga moslashgan usullar ham joriy etilgan.

Buxoro qovunchiligi rivojlanishning keyingi bosqichlarida xalqaro bozorlarni zabt etish va eksport salohiyatini oshirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Buxoro qovunlari, ayniqsa, Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq davlatlarida katta talabga ega. Shu bilan birga, mahalliy qovunlarni xorijiy bozorga chiqarish, ularning brendini yaratish va eksportni kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar mavjud.

Buxoro viloyatining qovunchilik tarmog‘i nafaqat hududiy iqtisodiyot uchun, balki butun O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi va agrar sektori uchun muhim ahamiyatga ega. Qovunlar, asosan, yirik eksport mahsulotlaridan biri bo‘lib, Buxoro viloyati budjetining shakllanishiga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatadi. Buxoro qovunlari, nafaqat ichki bozorga, balki xorijiy bozorga ham yetkazib beriladi.

Aholi uchun qovunchilik yana bir muhim iqtisodiy tarmoqdir. O‘rta va kichik fermer xo‘jaliklari, qishloq aholisi uchun qovunchilik bir necha oilaviy daromad manbalaridan biridir. Qovun yetishtirish, dastlabki bosqichlardan tortib, hosilni yig‘ish va savdoga chiqarishgacha bo‘lgan jarayonlarda ko‘plab ish o‘rinlari yaratadi.

Innovatsion texnologiyalar va ilmiy-tadqiqot ishlari davomida qovun turlarining yangi navlarini yaratish va ularning sifatini yanada yaxshilash



imkoniyatlari mavjud. Shuningdek, ekotizimga zarar yetkazmasdan aqlli qishloq xo'jaligi usullarini joriy etish orqali qovunchilikni yanada barqaror rivojlantirish mumkin.

Buxoro qovunlarini xalqaro bozorlarga chiqarish, ayniqsa, ekologik toza va yuqori sifatli mahsulot sifatida tanitish, viloyat iqtisodiyotini yanada diversifikatsiya qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda Buxoro qovunchilik tarixi va uning rivojlanish jarayoni, nafaqat agrar sohaning o'ziga xos xususiyatlarini, balki O'zbekistonliklarning mehnatsevarligi, tajribasi va madaniyatini ham aks ettiradi. Buxoro qovuni, o'zining shirinligi, sifatli tarkibi va madaniy ahamiyati bilan nafaqat o'zbek xalqining, balki butun dunyoning qadrlagan mahsulotlaridan biriga aylangan. Qovunchilikning kelajagi esa, innovatsion texnologiyalar, ilmiy izlanishlar va samarali eksport siyosati orqali yanada ravnaq topishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R. Mavlyanova, A. Rustamov,. (2005). O'zbekiston qovunlari. Qo'llanma. – Toshkent.: “O'simliklar genetik resurslari halqaro institut”, B.17-19.
2. N. Botirova. Poliz mahsuloti qovunni navlari va yetishtirish texnologiyasi (2022) // Science and innovation № 3. B. 340-342.
3. O'zbekiston Respublikasi hududida yetishtirish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari davlat reestri, Toshkent, 2006.
4. O. Umarov, Z. Bafayeva, M.Alimov. (2024). Soil salinity effects on nitrogen fixers and cellulose decomposing microorganisms // International Scientific Siberian Transport Forum - TransSiberia 2024.



Familiya, ism, sharif	Saidov Mahmud Amonovich ¹ Alimov Muhammad Mo‘min o‘g‘li
Ilmiy unvon va lavozim, ish joyi va mamlakati	Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisilari
Elektron pochta manzili	m.a.saidov@buxdu.uz m.m.alimov@buxdu.uz
Maqolaning mavzusi (o‘zbek, rus va ingliz tilida)	Buxoro qovunchiligining rivojlanish istiqbollari Перспективы развития бухарской дыни Prospects for the development of bukhara melon
Annotatsiya – 30-50 ta so‘z (o‘zbek, rus va ingliz tilida)	Ushbu tezisdan Buxoro qovunchiligi, uning rivojlanish tarixi, yetishtirilayotgan qovun navlari va ularning xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan. В данной диссертации будет рассмотрена Бухарская дыня, история ее развития, сорта дыни и их особенности. This thesis talks about Bukhara melon, the history of its development, the varieties of melon being grown and their characteristics.
Kalit so‘zlar – 5-10 ta (o‘zbek, rus va ingliz tilida)	Qovunchilik, nav, ertapishar, o‘rtapishar, kechpishar, Oknovvot, Amiri, Ko‘ktinni; дыня, сорт, раннеспелый, среднеспелый, позднеспелый, Акновот, Амири, Куктинни; Melon, nav, ertapishar, rtapishar, kechpishar, Oknovvot, Amiri, Kuktinni;



49	BUXORO QOVUNCHILIGINING TARIXI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	<i>Saidov Mahmud Amonovich, Alimov Muhammad Mo'min o'g'li (Author)</i>	309-314
50	SULTON JALOLIDDIN MANGUBERI	<i>Abdusalomova Xurshida Jaloldinovna (Author)</i>	315-318
51	MENDEL VA IRSIYATNING DOMINANT-RETSSESSIV MODELII	<i>Ulug'murodova Ruhshona Sherzod qizi, Ismoilov Komiljon Tuyg'unovich (Author)</i>	319-325
52	IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI INKLYUZIV TA'LIMDA QULAY SHAROIT YARATISH ORQALI, ULARNING IJTIMOII INTEGRATSIYASINI SAMARALI TA'MINLASH	<i>Mamaraximova Zamira Atadjonovna (Author)</i>	326-330
53	XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA STRATEGIK MARKETING	<i>Aktamov Olmosbek Alisher o'g'li (Author)</i>	331-335
54	OLIIY TA'LIM PEDAGOGLARINING SALOMATLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI, METOD VA SHAKLLARI	<i>Jumaniyazova Tupajon Alimovna, Tursunov Shixnazar Saparbeyevich (Author)</i>	336-344
55	XALQARO STRATEGIK MARKETING : YANGI BOZORLARGA CHIQUISH XUSUSIYATLARI	<i>Pardayev Komron Tolibovich (Author)</i>	345-353
56	METAVESENING STRATEGIK MARKETINGGA TASIRI	<i>Samandar Abduraimov Abduraxim o'g'li (Author)</i>	354-363
57	ELEKTRON SAVDO BIZNES MODELINI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI	<i>Baratov Diyorbek Fazliddin o'g'li (Author)</i>	364-370
58	ТИПЫ НЕОЛОГИЗМОВ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ.	<i>Джуроева Зарина Асалбой кизи (Author)</i>	371-376
59	SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARI POETIKASI	<i>Hasanova Umida Odiljon qizi (Author)</i>	377-380
60	IJTIMOII TARMOQLARNING BREND JOYLASHUVIGA TA'SIRI	<i>Zaripboyeva Bonu Xurshid qizi, Hamroqulov Mahmud G'ofurjonovich, (Author)</i>	381-388
61	INCLUSIVE EDUCATION POLICIES: SUPPORTING STUDENTS WITH	<i>Mirag'zamova Oysha Mirsherzod qizi (Author)</i>	389-394